

**VOYAGA YETMAGANLARNI JINOIY JAVOBGARLIKDAN YOKI  
JAZODAN OZOD QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.**

*Shukurova Gulchiroy Akmaljon qizi*

*Farg'ona viloyati yuridik texnikumi*

*“Yuridik xizmat” yo‘nalishi*

*2-bosqich 22-22-guruh o‘quvchisi*

*Telefon: +998940742908*

*shukurovagulchiroy4@gmail.com*

*Nishonova Dilzoda Alisher qizi*

*Farg'ona viloyati yuridik texnikumi*

*“Sud-huquqiy faoliyat” yo‘nalishi*

*2-bosqich 23-22-guruh o‘quvchisi*

*Telefon: +998941022596*

*nishonovadilzoda16@gmail.com*

***Annotatsiya:** Mazkur maqolalada voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarda ularni jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilish tartibi, asoslari hamda ularni takomillashtirish bilan bog‘liq masalalar xususida fikr yuritiladi.*

***Kalit so‘zlar:** insonparvarlik, majburlov choralari, huquqbuzarlik, jabrlanuvchi, ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyat, Jinoyat kodeksi, jinoiy javobgarlik, jinoiy jazo.*

***Аннотация:** В данной статье рассматривается порядок, основания освобождения несовершеннолетних от уголовной ответственности и наказания за совершенные преступления, а также вопросы, связанные с их совершенствованием.*

***Ключевые слова:** гуманные, принудительные меры, проступок, потерпевший, преступление, не представляющее большой общественной опасности, Уголовный Кодекс, уголовная ответственность, уголовное наказание.*

***Abstract:** This article will focus on the procedure, grounds and issues related to the release of minors from criminal liability and punishment for crimes committed by them, as well as their improvement.*

***Key concepts:** humanitarian, coercive measures, violation, victim, a crime with no high social risk, criminal code, criminal liability, criminal punishment.*

Ma'lumki hozirgi kunda prezidentimiz o'z murojaatlarida biz yoshlarga qarata "Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odoab-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his

etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan"<sup>1</sup>, - deya ta'kidlaydi. Prezidentimiz biz uchun keng imkoniyatlar, qulay sharoitlar, erkin ulg'ayib o'sishimiz uchun shart-sharoitlar yaratib bermoqdalar. Biz yoshlar bunday imkoniyatlardan oqilona foydalanishimiz hamda O'zbekistonimizni bayrog'ini yuksaklarga ko'tarishimiz uchun astoydil harakat qilishimiz kerak. Lekin hozirgi kunda voyaga yetmaganlarning o'rtasida jinoyatlar ko'payib bormoqda.

Jinoyat kodeksining prinsiplaridan biri javobgarlikning muqarrarligi prinsipidir. Jinoyiy javobgarlik jinoyat sodir etishning huquqiy oqibati bo'lib, u sudning hukmi yoki qonunda nazarda tutilgan tegishli choralarni qo'llashda namoyon bo'ladi.

Biroq qonun chiqaruvchi insonparvarlik prinsipini amaliy ifodasi sifatida amaldagi jinoyat qonunchiligiga jinoyiy javobgarlikdan ozod qilish institutini kiritgan.

Jinoyiy javobgarlikdan ozod etish huquqiy tabiatiga ko'ra aybdorning u sodir etgan jinoyatining huquqiy oqibatlari – jazodan va sudlanganlik cheklovlaridan ozod qilinishi, uni davlat nomidan sud hukmi bilan aybdor deb e'lon qilishdan voz kechishini anglatadi.

Shu jihatdan qaralganda, voyaga yetmaganlarni jinoyiy javobgarlikdan ozod qilish jinoyat sodir qilgan shaxsga nisbatan qonunda ko'rsatilgan jinoyat-huquqiy sanksiyani qo'llamay, aksincha, uni bunday javobgarlikdan ozod qilishni ifodalaydi. Bu holat jinoyiy javobgarlikdan ozod qilish turlari uchun, jumladan, yarashganligi munosabati bilan, shuningdek voyaga yetmaganlarga nisbatan majburlov choralari qo'llagan holda jinoyiy javobgarlikdan ozod qilishga ham taalluqlidir.

Voyaga yetmaganlarni jinoyiy javobgarlikdan ozod qilish majburlov choralari qo'llagan holda amalga oshiriladi. Majburlov choralari faqat voyaga yetmaganlarga nisbatan qo'llaniladi va o'zida tarbiya mazmunini ifodalaydi. Ularning qo'llanilishi jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlarning jinoyiy faoliyatni davom ettirmaslik va ijtimoiy hayotga tezroq moslashishlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Majburlov choralari tarbiyaviy xususiyatdagi choralar hisoblanib voyaga yetganlarga nisbatan tayinlash maqsadga muvofiq bo'lmaydi, demak, majburlov choralari qo'llash vaqtida shaxs ham voyaga yetmagan bo'lishi kerak.<sup>2</sup>

Jinoyat kodeksining 87-moddasiga ko'ra, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan voyaga yetmagan shaxs, agar sodir etgan qilmishining xususiyatlari, aybdorning shaxsi va ishning boshqa holatlarini e'tiborga olib, uni jazo

<sup>1</sup> <https://soglom.uz/archives/8338>

<sup>2</sup> Jinoyat huquqi. (Umumiy qism) Yuridik texnikum o'quvchilari uchun darslik. Mas'ul muharrir: yu.f.f.d (PhD) X.Ochilov – T.: Adolat nashriyoti, 2020. 264 b.

qo'llamasdan turib ham tuzatish mumkin degan xulosaga kelinsa, javobgarlikdan ozod qilinib, ish voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiyada ko'rishga topshirilishi mumkin. 2011-yil 17-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil "Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar faoliyatini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 13-sonli qaroriga asosan Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar to'g'risidagi Nizom tasdiqlangan edi. Nizomga muvofiq, Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar o'z faoliyatini jamoatchilik asosida amalga oshiradigan, voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning oldini olish organlari hisoblanar edi<sup>3</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagi PQ-2833-sonli "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilinib, mazkur Qarorning 3-bandiga asosan yuqorida so'z yuritilgan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiya, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar (shaharlar) hokimliklari huzuridagi voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalarni tegishincha Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi hamda voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha hududiy idoralararo komissiyalar etib qayta tashkil etildi.<sup>4</sup>

Ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan voyaga yetmagan shaxs, yuqorida ta'kidlanganidek, sodir etgan qilmishining xususiyatlari, aybdorning shaxsi va ishning boshqa holatlarini e'tiborga olib, uni jazo qo'llamasdan turib ham tuzatish mumkin degan xulosaga kelinsa, javobgarlikdan ozod qilinib, ish Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi hamda voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha hududiy idoralararo komissiyalarda ko'rishga topshiriladi.

Bundan tashqari, ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etishda ayblanayotgan voyaga yetmagan shaxs jismoniy va ruhiy rivojlanishda o'z yoshiga nisbatan ancha orqada qolgan bo'lsa va sodir etgan qilmishining ahamiyatini to'la ravishda anglab yetmasa, sud jazo o'rniga unga nisbatan majburlov chorasi qo'llash maqsadga muvofiqligi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqadi.

Majburlov choralari xususiyatiga ko'ra, jazo chorasi hisoblanmasada uni qo'llashdan maqsad ham jazo chorasini qo'llashning maqsadi bilan o'xshash. Chunki voyaga yetmagan shaxsga majburlov choralari bilan ta'sir qilishda ishontirish yo'li

<sup>3</sup> 2011-yil 17-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil "Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar faoliyatini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 13-sonli qarori

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagi

PQ-2833-sonli "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori

bilan harakat qilinadi, jinoyat sodir etishning ijtimoiy xavfi unga ongli ravishda tushuntiriladi.

Jinoyat kodeksining 88-moddasiga ko'ra voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan quyidagi majburlov choralari qo'llaniladi:

1. Sud belgilaydigan shaklda jabrlanuvchidan uzr so'rash majburiyatini yuklash;
2. O'n olti yoshga to'lgan shaxs zimmasiga yetkazilgan zararni o'z mablag'i hisobidan yoki mehnati bilan to'lash yoki bartaraf qilish majburiyatini yuklash;
3. Voyaga yetmaganni maxsus o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish.<sup>5</sup>

O'n olti yoshga to'lgan shaxs zimmasiga yetkazilgan zararni o'z mablag'i hisobidan yoki mehnati bilan to'lash yoki bartaraf qilish majburiyatini yuklash tarzidagi majburlov chorasini yetkazilgan zarar belgilangan bazaviy hisoblash stavkasining o'n baravaridan oshib ketmagan hollarda qo'llaniladi. Yetkazilgan zarar belgilangan bazaviy hisoblash stavkasining o'n baravaridan ortib ketgan hollarda yetkazilgan zarar fuqaroviy huquqiy tartibda undiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi 15-moddasida belgilanishicha, voyaga yetmaganlarga nisbatan jabrlanuvchidan uzr so'rash, yetkazilgan zararni to'lash yoki bartaraf etish majburiyatini yuklash tarzidagi majburlov choralari sud tomonidan ijro etiladi.

Shuningdek, Jinoyat-ijroiya kodeksining og'zaki yoki yozma ravishda, ko'pchilikning oldida yoki yakka tartibda uzr so'rash shaklida amalga oshirilishi mumkin. Voyaga yetmagan shaxsning uzr so'rash joyi, vaqti va tartibi sud tomonidan belgilanadi. Uzr so'rash majburiyatini yuklash tariqasidagi majburlov chorasini ijro etilganligi to'g'risida tegishli hujjat rasmiylashtiriladi.

Jinoyat-ijroiya kodeksining voyaga yetmagan shaxsning yetkazilgan zararni o'z mablag'lari hisobidan yoki o'z mehnati bilan to'lashi yoxud bartaraf etishi sud tomonidan belgilangan tartibda va muddatlarda amalga oshiriladi. Yetkazilgan zararni o'z mablag'lari hisobidan yoki o'z mehnati bilan to'lash yoxud bartaraf etish majburiyatini yuklash tariqasidagi majburlov chorasini ijro etilganligi to'g'risida tegishli hujjat tuziladi.

Voyaga yetmagan shaxslarga qo'llaniladigan majburlov choralariidan yana biri bu ularni maxsus o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish bo'lib, mazkur majburlov chorasini xalq ta'limi organlari tomonidan ijro etiladi.

voyaga yetmagan shaxslar xalq ta'limi organlarining maxsus o'quv-tarbiya muassasalariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda joylashtiriladi. Voyaga yetmagan shaxslarning maxsus o'quv-tarbiya muassasalarida bo'lishi tartibi va sharoiti, o'quv jarayoni va tarbiyaviy ta'sirga oid ishni tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan belgilanadi.<sup>6</sup>

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. <https://lex.uz/docs/111453>

<sup>6</sup>

O'zbekiston Respublikasining "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiya voyaga yetmaganga nisbatan kelib tushgan uning aybliligi to'g'risidagi masala hal qilinmay turib rad qilingan yoki tugatilgan jinoyat ishi materiallarini ko'rib chiqib, voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat qilish haqida qaror qabul qiladi. Ichki ishlar organi boshlig'i yoki uning o'rinbosari voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish mumkinligi haqidagi masalani ko'rib chiqish uchun voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyaga quyidagi hujjatlarni yuboradi:

- voyaga yetmaganning o'qish (ish) joyidan ma'lumotnoma va tavsifnoma;
- voyaga yetmaganning oilaviy-maishiy turmush sharoitlarini tekshirish dalolatnomasi;
- ichki ishlar organining voyaga yetmagan tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar hamda shu sababli ko'rilgan ta'sir choralari haqidagi axborotni o'z ichiga olgan ma'lumotnomasi;
- sog'liqni saqlash muassasasining voyaga yetmaganning sog'lig'i holati hamda uni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish mumkinligi haqidagi xulosasi.

So'zimiz yakunida aytish joizki, hozirgi kunda voyaga yetmaganlar o'rtasida turli xil jinoyatlar avj olmoqda. Biz ularni oldini olish maqsadida qo'limizdan kelgancha harakat qilmoqdamiz. O'zbekistonning kelajagi biz yoshlarning qo'limizdadir. Shunday ekan shu buyuk xalqimizga munosib farzand bo'lish, munosib hayot kechirishimiz lozim va voyaga yetmaganlar o'rtasidagi jinoyatchiliklarni oldini olishimiz kerak, chunki inson, uning hayoti, sha'ni va qadr-qimmati oliy qadriyat hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. <https://lex.uz/docs/111453>.
2. O'zbekiston Respublikasining "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi 29.09.2010 yildagi O'RQ-263-son Qonuni.
3. 2011-yil 17-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil "Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar faoliyatini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 13-sonli qarori
4. Sh.M. Mirziyoyev. <https://soglom.uz/archives/8338>.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagi PQ-2833-sonli "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori